



BARQAROR RIVOJLANISH HUQUQI VA ESG STANDARTLARI

Madaminov Dilshadbek

Toshkent Davlat

Yuridik Universiteti magistranti. (dimamsn@mail.ru)

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8115615>

ARTICLE INFO

Received: 24th June 2023

Accepted: 29th June 2023

Online: 30th June 2023

KEY WORDS

Barqaror rivojlanish, predmet, barqaror munosabatlar, ESG, standartlar, ijtimoiy mas'uliyat.

ABSTRACT

Maqolada barqaror rivojlanish huquqi tushunchasining mazmuni va mohiyati umumiy yondashuvdan kelib chiqqan holda yoritilishga harakat qilingan. Bunda, barqaror rivojlanish jarayonida vujudga keladigan murakkab ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar tizimini o'zida aks ettiradigan barqaror rivojlanish huquqining shallanishi qayd etilgan. Kelajak avlodlar ehtiyojlarining qondirilishi imkoniyatiga to'sqinlik qilmagan holda, hozirgi avlod ehtiyojlarining qondirilishini va jamiyat rivojlanishini ta'minlaydigan barqaror rivojlanish huquqining predmeti bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan ekologik, ijtimoiy hamda korporativ munosabatlarni tartibga soladigan barqaror rivojlanish huquqi shakllanish jarayonini tugatmoqda. Belgilab o'tilgan munosabatlar ESG-standartlari vositasida nodavlat ta'sir me'yorlari majmuasi tomonidan ham tartibga solinadi. Zamonaviy sharoitlarda barqaror rivojlanish va barqaror rivojlanish munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish masalasini ko'rib chiqish ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida barqarorlikni baholash hamda rag'batlantirishga tabaqalashtirilgan, xilma-xil yondashuvlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'lishi haqida xulosaga kelingan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi dastlab xalqaro ekologik huquq doirasida vujudga kelgan. Lekin, hozirgi kunga kelib barqaror rivojlanish barcha faoliyat sohalarida eng muhim hamda ta'sir doirasi juda kata bo'lgan huquqiy va ko'p jihatdan siyosiy tamoyil maqomiga ega bo'ldi. Bu ayniqsa rivojlanishni tartibga soluvchi qonunchilik sohasida asosiy ko'rsatkich sifatida yorqin namoyon bo'lgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining shakllanishi bashariyatning bizni o'rab turgan tabiiy muhit imkoniyatlari, shuningdek, uning resurs salohiyati cheksiz emasligini anglashi



bilan bevosita bog'liqdir. Ilk bor "barqaror rivojlanish" atamasi va uning ta'rifi atrof-muhit va rivojlanish masalalari bo'yicha Butunjahon komissiyasining (Brundtland komissiyasi) 1987 yildagi "Bizning umumiy kelajagimiz" hisobotida o'z aksini topdi¹. Brundtland komissiyasi barqaror rivojlanishni kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga putur etkazmasdan hozirgi kun ehtiyojlarini to'liq qondiradigan rivojlanish sifatida tushunishni taklif qildi². Mazmun va mohiyati jihatidan barqaror rivojlanish uchta tarkibiy qismga ajralib turadi: ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik³.

Biznes sohasida barqaror rivojlanish konsepsiyasi birinchi marta 2004 yilda BMT Bosh kotibi Kofi Annan tomonidan eng yirik jahon kompaniyalari rahbarlariga murojaat qilgan "Befarq bo'lmagan g'alaba qozonadi" (Who cares wins) nomli ma'ruzasida shakllangan va aytilgan ESG-tamoyillarida namoyon bo'lgan. Bosh kotib o'z nutqida kompaniya rahbarlarini mazkur tashabbusga qo'shilishga hamda ESG-tamoyillarini ularning kompaniyalari asosiy moliyaviy strategiyalariga kiritishga da'vat qildi⁴. Shunday qilib, ESG-tamoyillari biznesni barqaror rivojlantirishning o'ziga xos modeliga aylandiki, kompaniyalar u orqali ekologik, ijtimoiy hamda boshqaruv bilan bog'liq muammolarni hal qilishda ishtirok etgan holda belgilangan maqsadlariga erishishgan.

Hozirgi kunda barqaror rivojlanish konsepsiyasi mazmunini kengaytirishga qaratilgan butunjahon tendensiya mavjudligi kuzatilmoqda va bir qator olimlarning fikriga ko'ra zamonaviy ma'nodagi barqaror rivojlanish barkamol rivojlanish bo'lib, bunda inson jamiyati va tabiat o'rtasida, turli xil ijtimoiy guruhlar orasida, shaxsiy (xususiy) va umumiy (jamoat) manfaatlar o'rtasida, hozirgi va kelajak avlodlar ehtiyojlari o'rtasida o'zaro uyg'unlikka (murosa, kelishuv) erishiladi va ta'minlanadi⁵.

Mihael Dekleris (Michael Decleris) barqaror rivojlanish huquqi bo'yicha Yevropa Komissiyasi uchun tayyorlagan hisobotida barqaror rivojlanishning ikkita ta'rifini shakllantirgan. Bular: tor (texnik) va keng (huquqiy) ma'nodagi barqaror rivojlanish tushunchalaridir. Texnik (tor ma'nodagi) ta'rifga ko'ra, barqaror rivojlanish – parallel ravishda tabiiy (boylik) kapitalning kamayishi, qisqarishi yoki yemirilishiga olib kelmaydigan mamlakat boyligi (yalpi daromadi)ni ishlab chiqarilishining o'sishi, oshishidir. Bu ta'rif, shuningdek, avlodlar o'rtasidagi tenglik idealining amalga oshishini ta'minlaydi, chunki u mamlakatning tabiiy kapitalini saqlab qolish va kelajak avlodlarga buzilmagan, bekamu-ko'st holda etkazilishini talab qiladi. Barqaror rivojlanish atamasining keltirilgan ta'rifi shu paytgacha intilib kelingan shafqatsiz rivojlanishning halokatli natijalarini ushlab, jilovlab turish uchun zarurdir.

¹ Доклад Всемирной комиссии по вопросам окружающей среды и развития от 04.08.1987 A/42/427. С. 59 // URL: <http://www.un.org/ru/ga/pdf/brundtland.pdf>

² Доклад Всемирной комиссии по вопросам окружающей среды и развития от 04.08.1987. С. 59.

³ Бекашев Д. К. Роль ООН в формировании и развитии международно-правовой концепции устойчивого рыболовства в Мировом океане // Международное публичное и частное право. 2015. № 5 (86). С. 17 ;

Боклан Д. С. «Экологизация» международных экономических отношений в контексте эволюции концепции устойчивого развития // Московский журнал международного права. 2015. № 1. С. 118–124.

⁴ URL: https://d306pr3pise04h.cloudfront.net/docs/issues_doc%2FFinancial_markets%2Fwho_cares_who_wins.pdf

⁵ Европейское право устойчивого развития в глобальном сопоставлении: основные понятия, источники, проекты: монография / С. Ю. Кашкин, Н. А. Пожилова, А. О. Четвериков ; отв. ред. С. Ю. Кашкин. М.: Русайнс, 2022. С. 15.



Keng ma'noda M.Dekleris barqaror rivojlanishni umumiy (qayta) tiklanish siyosati, yani kurrai-zamin, tabiatning biologik ekotizimlari va sun'iy tizimlar o'rtasidagi muvozanatni tiklashga intilish sifatida ta'riflaydi. Bunda ikkala tizim orasida barqaror muvozanat saqlangan holda kelajakda birgalikdagi rivojlanish ta'minlanadi. Bu muvozanat bozor munosabatlarining hukmronligi tufayli jiddiy ravishda buzilgan edi. Davlatning ushbu (qayta) tiklovchi siyosati, avvalambor, quyidagi jihatlariga qaratilgan bo'lishi kerak: a) shaxsning moddiy qadriyatlariga nisbatan nomoddiy huquqiy qadriyatlarini oshirish va ustun qo'yish, b) madaniy merosni saqlash, v) madaniyat va fanning bozor, bozor munosabatlaridan mustaqilligini ta'minlash, g) ijtimoiy adalotni o'rnatish va ta'minlash, d) tabiiy boylik (kapital)ni buzilmagan holda saqlash va uni kelajak avlodlarga zararsiz yetkazish uchun uning yanada kamayishi hamda yemirilishini oldini olish⁶.

Barqaror rivojlanish g'oyasi zamonaviy, an'anaviy huquqiy tizimlarini sezilarli darajada o'zgartirishga qodir bo'lgan rivojlanishning o'ziga xos, muqobil ko'rinishlaridan biriga aylanib bormoqda. Turli davlatlarda xalqaro tashkilotlar, uyushmalar, kasbiy birlashmalar doirasida, shuningdek, xalqaro va davlatlardan yuqori darajalarda barqaror rivojlanishni belgilovchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bu o'z navbatida olimlarni tegishli huquqiy hodisalar va institutlarni o'rganish va konsepsiyalashga chorlagan holda ularning zamonaviy normativ-huquqiy munosabatlarda tutgan o'rnini aniqlash, ekologik, xalqaro, konstitutsiyaviy, mehnat, korporativ, moliya, bank huquqi, Yevropa Ittifoqi huquqi, xalqaro xususiy huquq va boshqa huquq sohalarining fundamental huquqiy kategoriya hamda tamoyillarini oldindan belgilab berishga ko'maklashadi.

Barqaror rivojlanish huquqi bu – barqaror rivojlanish jamiyatining huquqiy modelidir.

Barqaror rivojlanish huquqining predmeti kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur yetkazmagan holda hozirgi avlod ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga qaratilgan jamiyatning rivojlanishi natijasida vujudga keladigan barqaror rivojlanishni belgilab beradigan ekologik, ijtimoiy va korporativ munosabatlarning dinamik, o'zgaruvchan majmui bo'lib hisoblanadi. Bu huquq predmetining dinamik o'zgaruvchanligi barqaror rivojlanish jarayoniga doimiy ravishda yangi ijtimoiy munosabatlarning qo'shilishi oqibatida tobora kengayib borishga bo'lgan moyilligi tufayli yuzaga keladi.

Barqaror rivojlanish huquqini huquqiy va huquqiy bo'lmagan metodologiyalarni almashtirish orqali barqaror rivojlanish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan institutsional-normativ majmualarining gibrid tizimi sifatida ta'riflanishi ham mumkin.

Bu yerda, haqiqatan ham, ESG-tamoyillari prizmasi orqali kompaniyalar faoliyatining barqaror rivojlanishga ta'sirini baholash xavflarni boshqarishdan foydalangan holda ishonchli biznes strategiyasini ishlab chiqishda hisobga olinadigan tijorat va investitsiya faoliyatining asosi bo'lishi juda muhimdir. ESG jihatidan ma'lumotlarni oshkor qilishning huquqiy asosi, tadbirkorlik faoliyatida, xususan, investitsiyaviy faoliyatda bu turdagi omillarni hisobga olish tegishli jarayonlarni samarali ta'minlash hamda rivojlantirish uchun juda muhimdir. Masalan, kompaniyalar tomonidan ESGga tegishli ma'lumotlarning oshkor qilinmasligi atrof-muhitni

⁶ The Law of Sustainable Development: General Principles by Michael Decleris // URL: <https://op.europa.eu/en/publication-detail/-/publication/28d5c957-eb81-4ef2-8cdc-31aa28436206/language-en>



ifloslantiradigan yoki xodimlarni kamsitadigan yuqori xavfli (tavakkalli) sohalarga befoyda investitsiyalarning jalb qilinishiga olib kelishi mumkin⁷. ESG bilan bevosita bog'liq bo'lgan ma'lumotlarning oshkor qilinishi oqibatida vujudga keladigan yuqori darajadagi ichki va tashqi nazorat moliyaviy qoidabuzarliklarning oldini oluvchi muhim va kuchli omil hisoblanadi⁸. Bo'lg'usu investorlarning aksariyati o'zlarining moliyaviy qarorlarini ESG omillariga tayangan holda qabul qilishmoqda⁹. Tadqiq qilinayotgan munosabatlar sohasidagi transchegaraviy huquqiy tartibga solish usullari ESG-omillariga bo'lgan yondashuvlarni uyg'unlashtirish hamda global miqyosda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Normativ-huquqiy nuqtai nazardan, 2021 yil ma'lumotlarni saqlash va boshqarish tizimlarida ma'lumotlar sifati hamda qamrovini oshirish va yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan global moliyaviy regulyatorlar va tartibga solishning nodavlat (ixtiyoriy) standartlari yili bo'lganligi ta'kidlangan¹⁰. Tegishli talablar iqlim bilan bog'liq hisobotlar doirasidan chetga chiqadi va yanada kengroq ekologik va ijtimoiy faktorlarni qamrab oladi. Birinchi navbatda investorlarga qaratilgan ESG-tamoyillariga muvofiqligini isbotlaydigan ma'lumotlarni yuqori sifat darajasida oshkor qilish investitsiyaviy qarorlarni rag'batlantirish, iste'molchilarning xohish-istaklarini shakllantirish hamda normativ talablarga rioya qilishga qaratilgandir. Ushbu tartib-qoidalar nafaqat moliyaviy manbalarga erishish va normativ-huquqiy talablarga rioya qilish uchun muhim. Ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish kompaniya bilan bog'liq xavf-xatarlarni va uning imkoniyatlarini shaffof tarzda namoyish etgan holda, ESG-tamoyillari asosida barpo etilgan risk-menejmentdan foydalangan holda ishonchli biznes-strategiyalarni ishlab chiqish jarayonini osonlashtiradi.

Barqaror rivojlanishga qaratilgan turli yondashuvlarning mavjudligi sharoitida barqaror rivojlanish munosabatlarini huquqiy tomondan tartibga solish, turli ijtimoiy jarayonlarda ESG-tamoyillarini mustahkamlash va amalga oshirishning huquqiy jihatlari alohida ahamiyatni kasb etadi. Barqaror rivojlanish munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish iqlim o'zgarishi, koronavirus pandemiyasi, yuqori darajadagi qashshoqlik, bir qator davlatlardagi ijtimoiy ta'minotning past darajadali va shu kabi boshqa qiyinchiliklarni o'z ichiga olgan dolzarb global muammolarni bartaraf etishda juda muhim rol o'ynaydi va bu, albatta, transchegaraviy jarayonlarga, xalqaro ommaviy va xususiy huquqiy munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi sohasida ayniqsa ahamiyatli bo'lgan yo'nalishlardagi munosabatlarda turli

⁷ Wan Masliza Wan Mohammada, Shaista Wasiuzzaman. Environmental, Social and Governance (ESG) disclosure, competitive advantage and performance of firms in Malaysia // *Cleaner Environmental Systems*. Vol. 2. June 2021. 100015. URL: <https://doi.org/10.1016/j.cesys.2021.100015>

⁸ Xueying Yuang, Zhongfei Li, Jinhua Xu, Lixia Shang. ESG disclosure and corporate financial irregularities — Evidence from Chinese listed firms // *Journal of Cleaner Production*. Vol. 332. 15 January 2022. 129992. URL: <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2021.129992>

⁹ Merz T. A Conceptual Framework to Test the ESG Portfolio-Level Performance Hypothesis (March 23, 2019) // URL: <https://ssrn.com/abstract=3358927>

¹⁰ Key ESG trends. 2021–2022 // Hogan Lovells. URL: https://www.hoganlovells.com/~media/hoganlovells/pdf/2021%20PDFs/2021_05_05_ESG_5_Key_Trends.pdf



davlatlarning qonunchiligini uyg'unlashtirish va birlashtirish jarayonlarining negizida aynan ESG-tamoyillarini amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari yotishi mumkin¹¹.

Bundan tashqari, BMT doirasida turli barqaror rivojlanish maqsadlarini o'z ichiga olgan tegishli dasturlar ham qabul qilingan va qilinayapti. Masalan, uzoq 2000 yilda BMT Bosh Assambleyasi 15 yilga mo'ljallangan "Mingyillik rivojlanish maqsadlarini" (MRM - Millennium Development Goals, MDGs) qabul qilgan edi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ushbu Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari (MRM) BMTga a'zo davlatlar 2015 yilgacha erishishga harakat qilishga kelishib olgan 8 ta maqsaddan iborat bo'lgan. 2012 yilda BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha Konferensiyasida MRM Dasturini qabul qilgan davlatlar uning muvaffaqiyati bo'lganligini e'tirof etgan holda 2015 yildan keyin yangi kun tartibini qabul qilish zarurligiga kelishishdi va kompleks barqaror rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqish uchun tarkibi BMTga a'zo davlatlarga ochiq tarkibli ischi guruhi tuzishdi.

2015 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 193 ta davlat yangi kun tartibining yakuniy hujjati - "Dunyomizni o'zgartirish: 2030 yilgacha barqaror rivojlanish Kun Tartibi" Deklaratsiyasi bo'yicha o'zaro konsensusga erishishdi¹². Bir yildan ortiq davom etgan muzokaralar yakunida ishchi guruhi barqaror rivojlanish sohasida 17 ta maqsadini aniqlash bo'yicha o'z tavsiyalarini taqdim etdi. 2015 yil 25sentabr kuni BMTning Nyu-Yorkdagi shtab-kvartirasida davlat va hukumat rahbarlari 2015 yildan keyingi rivojlanish kun tartibini ma'qullagan holda Deklaratsiyani qabul qildilar va insoniyatni qashshoqlikdan olib chiqish va sayyorani "davolash"ga va'da berdilar.

Deklaratsiyaning 18-bandida kompleks (har tomonlama) va bir biridan ajralmas xarakterga ega bo'lgan barqaror rivojlanish sohasida 17 ta maqsad hamda ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan 169 ta vazifa e'lon qilinayotganligi belgilab qo'yildi. Bunday keng ko'lamli va universal strategik dasturni amalga oshirish bo'yicha ishtirokchilarning majburiyatlari, birgalikdagi sa'y-harakatlarining misli ko'rilmagan darajada ekanligi qayd etilgan.

Deklaratsiyaning 59-bandida barqaror rivojlanish maqsadlari sifatida 17 ta jamlangan maqsadlar yirik guruhi belgilangan. Ushbu band qoidalarining deklarativ ohangda yangrashiga qaramay, bu maqsadlar barqaror rivojlanish sohasidagi davlatlar va xususiy subyektlar faoliyatini uyg'unlashtirishda muhim rol o'ynadi va o'ynab kelmoqda.

17 ta barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) qashshoqlik, ochlik, sog'liqni saqlash, ta'lim, gender tenglik, toza suv va sanitariya, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ma'suliyatli iste'mol va ishlab chiqarish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar kabi bir qator muammolarni qamrab oladi¹³. Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish hukumatlar, davlatlar, jamoat tashkilotlari va biznesning birgalikdagi kelishilgan sa'y-harakatlarini talab qiladi. BRMlarni ilgari surishda kompaniyalarning roli asosiy hisoblanadi. Kompaniyalar o'zlarining moliyaviy va xo'jalik yuritish faoliyati orqali

¹¹ Шахназаров Б. А. Право устойчивого развития: понятие, методология. Трансформация ESG-повестки в условиях санкционных ограничений // Lex russica. — 2022. — Т. 75. — № 7. — С. 51–63. — DOI: 10.17803/1729-5920.2022.188.7.051-063.

¹² Декларация от 25.09.2015, принята Генеральной Ассамблеей ООН // URL: <https://docs.cntd.ru/document/420355765>

¹³ Xiaoke Zhang, Xuankai Zhao, Linshan Qu, Do green policies catalyze green investment? Evidence from ESG investing developments in China, Economics Letters, Volume 207, 2021, 110028, ISSN 0165-1765, URL: <https://doi.org/10.1016/j.econlet.2021.110028>.

URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0165176521003050>



BRMLar tomonidan hal qilinadigan ijtimoiy va ekologik muammolarning yechilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishlari mumkin. Natijada, ko'plab tashkilotlar ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) bilan bog'liq masalalarni o'zlarining biznes strategiyalarining asosiy elementiga aylantirdilar. ESG natijasidagi amaliyot bir nechta BRMLari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu maqsadlarga erishishga ko'maklashishi mumkin. Masalan, issiqxona gaslarini atmosfera havosiga emissiyasini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish BRM 7 (Barqaror va ishonchli energiya) va BRM 13 (Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish) ga erishishga yordam berishi mumkin. Ish joyida gender tenglik va xilma-xillikni targ'ib qilish oldin keltirilgan misol kabi BRM 5 (Gender tenglik) ga erishishga yordam berishi mumkin. Tegishli tartibdagi korporativ boshqaruv amaliyoti ham BRM 16 (Tinchlik, adolat va samarador institutlar) ga erishishda yordam berishi mumkin. ESG-standartlarini amaliyotga kiritish muammosiz emas, albatta. Masalan, ESG hisobotlarida yagona standartning mavjud emasligi turli xil ESG amaliyotlarining ta'sirini solishtirish va baholashni qiyinlashtiradi¹⁴.

ESG amaliyoti (standartlari) va barqaror rivojlanish bilan bog'liq bir qator asosiy va muhim xulosalarni bildirish mumkin. Birinchidan, ESGning (umumiy holat) investorlar va kompaniyalar uchun naqadar muhim ekanligini anglash tobora ortib bormoqda. Sarmoyadorlar investitsiya kiritish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda ESG omillarini tobora ko'proq e'tiborga olishmoqda va kompaniyalar uzoq muddatli rivojlanishda barqaror rivojlanish metodlarining naqadar muhim ekanligini anglab yetishmoqda. Ikkinchidan, investorlarga asosli qarorlar qabul qilish, kompaniyalarga barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini beradigan ESG bo'yicha standartlashtirilgan hisobotga ehtiyoj mavjud. Uchinchidan, ESG amaliyotining biznes samaradorligi va kompaniya obro'siga, shuningdek, ijtimoiy hamda ekologik munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydigan xususiy kompaniyalar tomonidan taqdim etilgan dalillar mavjud.

ESG va barqaror rivojlanish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarida hozirgi kunda tashkilotlar ro'baro' bo'layotgan bir qator muhim tendensiya hamda muammolar ko'rsatib o'tilgan. Eng muhim tendensiyalardan biri ESG va barqaror rivojlanishga yanada kompleks jihatdan yondashish zaruratidir. Aksariyat kompaniyalar hali ham ESG va barqaror rivojlanishni o'zlarining umumiy biznes strategiyalariga qo'shmasdan, kompaniyaning boshqa faoliyat turlaridan alohida tartibda rivojlantirishga harakat qilishmoqda. Bu kutilgan foydani bermaydigan barqaror rivojlanishga tarqoq yondashuvga olib kelishi mumkin. ESG va barqaror rivojlanish yanada chuqurroq integratsiyasiga qanday erishish mumkinligini tushunish uchun ESG va barqaror rivojlanishni korporativ qarorlar qabul qilish jarayonlariga integratsiya qilish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar talab etiladi. Ko'pgina kompaniyalar ESG bilan bog'liq ma'lumotlarini samarali to'plash va tahlil qilishga astoydil harakat qilishmoqda va ESG bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj borligi ta'kidlanmoqda¹⁵. Blokcheyn, sun'iy

¹⁴ Murillo Caldeira dos Santos, Fábio Henrique Pereira, ESG performance scoring method to support responsible investments in port operations, *Case Studies on Transport Policy*, Volume 10, Issue 1, 2022, Pages 664–673, ISSN 2213-624X, URL: <https://doi.org/10.1016/j.cstp.2022.01.027>.

¹⁵ Hiroki Hatayama, The metals industry and the Sustainable Development Goals: The relationship explored based on SDG reporting, *Resources, Conservation and Recycling*, Volume 178, 2022, 106081, ISSN 0921-3449, URL: <https://doi.org/10.1016/j.resconrec.2021.106081>.



intellekt va mashinali o'rganish kabi yangi texnologiyalardan foydalanish ESG hisobotini o'zgartirishi va bu ESG sohada tashkilotlarning shaffofligi va javobgarligini yanada oshirishi mumkin.

Yana bir muhim xulosa - ESG strategiyalarini ishlab chiqishda steykholderlar ishtirokining muhimligi. Manfaatdor tomonlarni, shu jumladan xodimlar, mijozlar va mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish ESG tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi va tashkilotlarning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi. ESG strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoniga steykholderlarni yanada samarali jalb qilish uchun steykholderlar bilan hamkorlik qilishning ilg'or amaliyotlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar talab etiladi.

Fikrimizcha, ESG va barqaror rivojlanish sohasida quyidagi mazmundagi tadqiqotlar talab qilinadi. Birinchidan, ESG ning kompaniya faoliyati va obro'siga bo'lgan ta'sirni baholash uchun ko'proq empirik tadqiqotlar olib borilishi zarur. Ikkinchidan, energetika va transport kabi muayyan sohalarda ESGning roli va ta'siri bo'yicha ko'proq tadqiqotlar talab qilinadi. Uchinchidan, ESG sohasida qarorlar qabul qilish jarayoniga mijoz va xodimlar kabi manfaatdor tomonlarning kengroq doirasini jalb qilish kerak. To'rtinchidan, yangi texnologiyalarning ESG bo'yicha hisobotlar va barqaror rivojlanish amaliyotiga bo'lgan ta'sirini yanada ko'proq va kengroq o'rganish zarur. Va nihoyat, ESGning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga ta'siri bo'yicha yanada ko'proq tadqiqotlar talab etiladi¹⁶.

ESG konsepsiyasi korporativ dunyoda barqaror rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha tobora muhim yondashuvga aylanib bormoqda.

References:

1. Бекашев Д. К. Роль ООН в формировании и развитии международно-правовой концепции устойчивого рыболовства в Мировом океане // Международное публичное и частное право. 2015. № 5 (86). С. 17
2. Боклан Д. С. «Экологизация» международных экономических отношений в контексте эволюции концепции устойчивого развития // Московский журнал международного права. 2015. № 1. С. 118–124.
3. Европейское право устойчивого развития в глобальном сопоставлении: основные понятия, источники, проекты: монография / С. Ю. Кашкин, Н. А. Пожилова, А. О. Четвериков; отв. ред. С. Ю. Кашкин. М.: Русайнс, 2022. С. 15.
4. Шахназаров Б. А. Право устойчивого развития: понятие, методология. Трансформация ESG-повестки в условиях санкционных ограничений // Lex russica. — 2022. — Т. 75. — № 7. — С. 51–63. — DOI: 10.17803/1729-5920.2022.188.7.051-063.
5. Кудряшов, А. Л. Глобальная ESG-трансформация и тенденции устойчивого развития российских компаний в условиях санкционного давления / А. Л. Кудряшов //

¹⁶ Sherif Goubran, Thomas Walker, Carmela Cucuzzella, Tyler Schwartz, Green building standards and the United Nations' Sustainable Development Goals, Journal of Environmental Management, Volume 326, Part A, 2023, 116552, ISSN 0301-4797, URL: <https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2022.116552>.



- Отходы и ресурсы. — 2022. — Т. 9. — № 4. — URL: <https://resources.today/PDF/50ECOR422.pdf> DOI: 10.15862/50ECOR422
6. Мажорина М. В. Право устойчивого развития: сущность, предмет и методология // Lex russica. — 2022. — Т. 75. — № 5. — С. 117–126. — DOI: 10.17803/1729-5920.2022.186.5.117-126.
7. Шахназаров Б. А. Esg-принципы и устойчивое развитие. Правовые аспекты. DOI: 10.21681/2226-0692-2022-1-2-11
8. Хамидуллина Ф. И., Газизуллин Р. И. Принципы права и стандарты ESG в сфере социально ответственного предпринимательства // Lex russica. — 2022. — Т. 75. — №12. — С. 21–30. — DOI:10.17803/1729-5920.2022.193.12.021-030.
9. The Law of Sustainable Development: General Principles by Michael Decleris // URL: <https://op.europa.eu/en/publication-detail/-/publication/28d5c957-eb81-4ef2-8cdc-31aa28436206/language-en>
10. Wan Masliza Wan Mohammada, Shaista Wasiuzzaman. Environmental, Social and Governance (ESG) disclosure, competitive advantage and performance of firms in Malaysia // Cleaner Environmental Systems. Vol. 2. June 2021. 100015. URL: <https://doi.org/10.1016/j.cesys.2021.100015>
11. Xueying Yuang, Zhongfei Li, Jinhua Xu, Lixia Shang. ESG disclosure and corporate financial irregularities — Evidence from Chinese listed firms // Journal of Cleaner Production. Vol. 332. 15 January 2022. 129992. URL: <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2021.129992>
12. Merz T. A Conceptual Framework to Test the ESG Portfolio-Level Performance Hypothesis (March 23, 2019) // URL: <https://ssrn.com/abstract=3358927>
13. Key ESG trends. 2021–2022 // Hogan Lovells. URL: https://www.hoganlovells.com/~media/hogan-lovells/pdf/2021%20PDFs/2021_05_05_ESG_5_Key_Trends.pdf
14. Xiaoke Zhang, Xuankai Zhao, Linshan Qu, Do green policies catalyze green investment? Evidence from ESG investing developments in China, Economics Letters, Volume 207, 2021, 110028, ISSN 0165-1765, URL: <https://doi.org/10.1016/j.econlet.2021.110028>. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0165176521003050>
15. Murillo Caldeira dos Santos, Fábio Henrique Pereira, ESG performance scoring method to support responsible investments in port operations, Case Studies on Transport Policy, Volume 10, Issue 1, 2022, Pages 664–673, ISSN 2213-624X, URL: <https://doi.org/10.1016/j.cstp.2022.01.027>.
16. Hiroki Hatayama, The metals industry and the Sustainable Development Goals: The relationship explored based on SDG reporting, Resources, Conservation and Recycling, Volume 178, 2022, 106081, ISSN 0921-3449, URL: <https://doi.org/10.1016/j.resconrec.2021.106081>.
17. Sherif Goubran, Thomas Walker, Carmela Cucuzzella, Tyler Schwartz, Green building standards and the United Nations' Sustainable Development Goals, Journal of Environmental Management, Volume 326, Part A, 2023, 116552, ISSN 0301-4797, URL: <https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2022.116552>